



O'ZBEKISTONDA DAVLAT TASHQI QARZINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINI O'RGANISH (QOZOG'ISTON MISOLIDA)

Nurmurodova E'zoza Shuhrat qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada tashqi qarzlardan samarali foydalanish amaliyotini yanada takomillashtirishda Qozog'iston Respublikasi tajribasi va uning tahlili, shuningdek, davlat tashqi qarzi boshqaruvida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ushbu davlat tashqi qarz siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rganish va ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash xususida ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *davlat byudjeti, davlat qarzi, ichki qarz, tashqi qarz, qisqa va uzoq muddatli qarz, defitsit, moliyaviy rejalashtirish, prognozlash, valyuta siyosati, to'lov balansi, YaIM, samarali boshqaruv.*

KIRISH

Mamlakatimizda davlat tashqi qarzlaridan foydalanishda ijobiy natijalarga erishish uchun xorijiy amaliyotni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda tashqi qarz siyosatini olib borishda biroz bo'lsa-da samaraga erishgan rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish ijobiy natija beradi. Fikrimizcha, bunda tashqi qarzda moliyaviy siyosat o'rganilishi mumkin bo'lgan davlatlardan biri bu - chegaradosh qo'shni davlat bo'lgan, shiddat bilan rivojlanayotgan Qozog'iston Respublikasi tashqi qarz siyosatidir.

TAHLIL VA NATIJALAR


Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatning davlat tashqi qarzi 161,7 mlrd AQSh dollarini yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan (2022-yil YaIM 225,53 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan) 71.7 foizga yetdi¹. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzi 2023-yil 1-yanvar holatiga 25,9 mlrd. AQSh dollari, YaIM ning 32,3 foiziga yetgan². Iqtisodiy nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzi summasi hamda YaIM ga nisbati past ko'rsatkichlarda qayd etilayotgani ijobiy taassurot uyg'otadi, ammo Qozog'iston Respublikasi 1993-yildan davlat tashqi qarzidan foydalanib kelayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu bevosita uning tashqi qarz siyosati ko'rsatkichlarini barqarorlik sabablarini tahlil qilishni taqozo etadi. Qozog'iston Respublikasining tashqi qarzi hajmi 2023-yil 1-yanvar holatiga holatiga ko'ra, o'tgan yilga qaraganda 2,2 foizga yoki 3,6 milliard AQSh dollariga tashqi qarz to'lov balansi operatsiyalari, tannarx va valyuta kursining

¹ Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. // manba: <https://www.gov.kz/datasets/govagencies?govAgencyId=AVVdMErf99eXTcgzgbVy>

² O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi: O'zbekiston Respublikasining Davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi, 2022. //manba:https://www.mf.uz/media/document_files/State_debt_2022__UZ_bHBBgRd.pdf




o'zgarishi hisobiga kamayganini kuzatishimiz mumkin.



1-rasm. Qozog'iston davlat qarzining davlat yillik YalMiga nisbati so'nggi 30 yil davomida (% da)³

Qozog'iston jalb qilgan tashqi qarz tarkibida: davlat organlari, Markaziy bank, tijorat banklari, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, kompaniyalararo qarzi, davlat kafolati ostidagi qarzlar, Qozog'iston Respublikasi qarz qimmatli qog'ozlari hamda boshqa tarmoqlar qarzlari yotadi. Qozog'iston Respublikasi 1993-yildan boshlab o'z iqtisodiyotiga qarz jalb qilishni boshlagan. Ushbu yildan to hozirgacha bo'lgan davrda tashqi qarz dinamikasi jadal tarzda o'sib bormoqda (1-rasm). Yuqoridagi jami 30 yillik tendensiyaga qaralsa, Qozog'iston davlati o'z YalMiga nisbatan past ulushlarda qarz olish orqali davlat qarz barqarorligini saqlab kelayotganligi tendensiyasi rivojlanayotgan davlatlar tajribasida juda kam uchraydi va aynan shu holat bu mamlakatning qarz siyosatini o'rganishni talab etadi.

³ Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
//manba:https://www.imf.org/external/datamapper/datasets/GDD



2-rasm. Qozog'iston Respublikasi davlat tashqi qarzi holati (2023-yil 1-yanvar holatiga, mlrd AQSh dollari)⁴

Qozog'iston Respublikasi jalb qilgan tashqi qarz tarkibida: davlat organlari, Markaziy bank, tijorat banklari, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, kompaniyalararo qarzi, davlat kafolati ostidagi qarzarlar, Qozog'iston Respublikasi qarz qimmatli qog'ozlari (nominal qiymati bo'yicha) hamda boshqa tarmoqlar qarzlari yotadi. Davlat tashqi qarzining 8,1 foizi davlat organlari tomonidan jalb qilingan tashqi qarz, 1,3 foizini Qozog'iston Respublikasi Markaziy banki tomonidan jalb qilingan tashqi qarz, 7,9 foizi banklar tomonidan jalb qilingan qarzarlar, 27 foizini boshqa sektorlar, 58 foizini to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, 1,5 foizini davlat kafolati ostidagi qarzarlar hamda 11,4 foizini Qozog'iston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlari egallaydi. Qozog'iston dunyodagi 173 davlatdan, shuningdek xalqaro tashkilotlardan qarzdor. Tashqi qarzning 32 foiz qismi Qozog'istonning 5 ta eng yirik kreditorlariga: Niderlandiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Xitoy va Fransiyaga to'g'ri keladi. Qarzning katta miqdori neft sektorida to'plangan bo'lib, bu xorijiy investorlarning asosiy ustuvorligi aks ettiradi. Qozog'iston Respublikasi Milliy banki ma'lumotlariga ko'ra, tashqi qarz o'sishining asosiy sababi kompaniyalararo qarzlarning ko'payishi (chet el kompaniyalari filiallari tomonidan neft-gaz loyihalarini amalga oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri investorlar oldidagi to'lanmagan dividendlar hamda kreditlar bo'yicha qarzlarning ko'payishi hisobiga) shuningdek, iqtisodiyotning nomoliyaviy sektori va hukumatning tashqi qarzi

⁴ Qozog'iston Respublikasi milliy banki ma'lumotlari// manba: <https://nationalbank.kz/platezhnyy-balans/rubrics/1702>



(yevrobondlar chiqarish, kreditlar jalb etish) hisobiga to'g'ri keladi. Qozog'iston Respublikasi davlat tashqi qarz siyosatida yuzaga kelayotgan muammoga yana bir sabab, bu mavjud tashqi qarzga boshqa makro ko'rsatkichlar va tenge kursiga zarar yetkazayotgan barrel neft narxining past ekanligi sababchi bo'lib, yaqin kelajakda kotirovka yetarlicha ko'tarilishi kutilmayabdi.


Quyida ekonometrik model tuzishda R-studio dasturidan foydalanilib, Qozog'iston Respublikasi davlat qarzining davlat yillik YaIMga nisbati ko'rsatkichlari kelgusi 3 yil uchun prognoz qilindi va u bo'yicha model shakllantirildi.

So'nggi 30 yillik Qozog'iston umumiy davlat qarzining YaIMga nisbati ma'lumotlari asosida ARIMA modellarimizdan biri bo'lgan AR (avtoregressiya) model tuzib olindi. Ushbu model koeffitsiyentlari **coeftest**ga tekshirilganda ham **avtoregressiya koeffitsiyenti (ar1)**, ham **intercept** parametri yuqori darajada ishonchli (***) deb topildi va ikkala koeffitsiyentlar asosida model tenglamasi tuzib olindi.

$$\hat{X} = 21.6 + 0.858 \cdot x_{t-1} + w_t$$

Ushbu tenglama interpretatsiyasiga to'xtalsak, bu yerda davlat qarzining YaIMga nisbati hech qanday faktorlar mavjud bo'lmagan taqdirda ham o'zgarmas 21,6 foizni tashkil qilishini anglatadi, davlat qarzining bir birlikka (bir milliard AQSh dollariga) oshishi uning YaIMga nisbatining 0.858 foizga ortishiga olib kelishini ko'rsatadi.

Prognoz avtoregressiya modelining qoldiqlari tekshirilganda Lyuing-Boks testiga ko'ra, p-value = 0.2135 ni ko'rsatdi va bizda p-value 0.05 dan katta, demak qoldiqlar avtokorrelyatsiyaga ega emas, Jarque-Bera testiga ko'ra p-value: 0.7402 ni ko'rsatdi, bizda p-value 0.05 dan katta, demak qoldiqlar normal taqsimlangan. Bularning barchasi model ishonchli tuzilganini anglatadi.



3-rasm. Kelgusi 3 yil uchun Qozog'iston davlat qarzining YaIMga nisbati prognozi ⁵

95 foizlik ishonch intervali asosida kelgusi 3 yil uchun avtoregressiya modeliga prognoz berildi. Prognozga ko'ra kelayotgan uch yilda Qozog'iston jami

⁵ Muallif tomonidan izlanishlar asosida tayyorlandi



davlat qarzi YaIMga nisbatan 23.22, 22.99 va 22.79 foizni tashkil qilishi bashorat berildi.

forarx= forecast (arx, h=3, level=95); forarx								
##	Point	Forecast	Lo	95	Hi	95		
##	2023		23.22712	13.78736	32.66687			
##	2024		22.99528	10.55897	35.43158			
##	2025	22.79643	8.55265	37.04021				

Prognozning ishonch intervali ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda barcha kelgusi uch yil uchun bashoratlar maksimum 32, 35 va 37 foizni tashkil etishi berilmoqda hamda bundan xulosa qilish mumkinki, Qozog'iston Respublikasining davlat qarzi uning YAIMga nisbati ko'rsatkichi kelayotgan 3 yilda ham Xalqaro valyuta jamg'armasining tavsiyaviy 60 % limitidan oshib ketmaydi.

Qozog'iston Respublikasining tashqi qarzi to'g'risidagi statistik hisobotida mamlakatning xalqaro investitsiya pozitsiyasida taqdim etilgan tashqi majburiyatlarning tarkibiy qismi bo'lgan davlat qarz majburiyatlarining qiymati va tarkibi aks ettiriladi. Tashqi qarzga kiritilgan majburiyat haqiqatda mavjud, ya'ni real va to'lanmagan bo'lishi kerak. Qozog'iston Respublikasining tashqi qarzini tuzish va baholash "Tashqi qarzni tuzuvchilar va foydalanuvchilari bo'yicha qo'llanma" (XVJ, 2013) asosida "To'lov balansi va xalqaro investitsiyalar" ning 6-nashrida keltirilgan standart hisob qoidalari va ta'riflariga muvofiq amalga oshiriladi. Tashqi qarz statistik hisobotida ma'lumotlarni taqsimlashning uchta darajasi qo'llaniladi: institutsional sektorlar bo'yicha (umumiy hukumat, markaziy bank, banklar, boshqa tarmoqlar va kompaniyalararo qarz); tashqi qarzning muddatlari bo'yicha (asl to'lov muddati bo'yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli); qarz vositalarining turlari bo'yicha (valyuta va depozitlar, qarz qimmatli qog'ozlari, kreditlar va ssudalar, savdo kreditlari va avanslar, boshqa majburiyatlar, SDR).

Tashqi qarzdan foydalanishning o'ziga xos yo'nalishi hukumat siyosati va mamlakatning hozirgi iqtisodiy ehtiyojlariga bog'liq. Umuman olganda, agar biz Qozog'istonning davlat qarzi va davlatning tashqi qarzi sohasidagi hozirgi holatini ularning YaIMga nisbatan baholasak, bu holat ancha barqaror, deyishga asos bor. Qozog'iston tashqi qarzining 90 foizdan ortig'i iqtisodiyotning korporativ va xususiy sektorlariga to'g'ri keladi. Ammo, agar jahon iqtisodiyotining holati makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan yomonlashsa, bu, albatta, ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sir qilmasligi mumkin emas. Bunday holat korporativ sektor va banklar uchun olingan qarz majburiyatlariga xizmat ko'rsatishni keskinlashtiradi. Bu muhit milliy iqtisodiyot barqarorligi nuqtai nazaridan tahdid va xavflarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qozog'iston Respublikasi tashqi qarz jalb etish amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak, undagi asosiy ijobiy amalga oshirilgan islohotlardan biri - bu Davlat qarzini rejalashtirish bo'yicha Markaziy vakolatli organ faoliyatining tashkil etilganligidir. Shuni ta'kidlash kerakki, muhim jihat - qarz olish va kreditlash jarayonlarining



shaffofligi. Bugungi kunda bu muammoli vaziyat, buni XVJ rahbari Kristalina Georgieva ham ta'kidlab o'tgandir. Ko'pgina mamlakatlar ishonchli ma'lumotni taqdim etmaydi, ba'zilari esa tashqi qarz bo'yicha vaziyat haqida umumiy ma'lumot bermaydi. Shu bilan birga, Qozog'istonda tashqi qarzlarning statistikasi har chorakda Qozog'iston Respublikasi Milliy banki tomonidan tuziladi va e'lon qilinadi. Ma'lumotlar xalqaro tashkilotlarning yagona talablariga muvofiq tuzilgan va ularga to'liq mos keladi. Qozog'iston tashqi qarzlari bo'yicha standart tuzilgan jadvallar taqdim etishidan tashqari uni turli tahliliy bo'limlar (mamlakatlar, tarmoqlar, valyutalar, muddatlar, stavkalar, kreditorlar bo'yicha) da ham aks ettiruvchi ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradigan dunyodagi kam sonli davlatlardan biri hisoblanadi. Ulardan esa reyting agentliklari, potensial investorlar va tahlilchilar mamlakat tashqi qarzining barqarorligini baholash uchun faol foydalana oladilar.

XULOSA

Qozog'iston Respublikasi tashqi qarz siyosatining joriy muvaffaqiyati bu uning qarz manbalari va uni realizatsiya qilish jarayonidagi har bir jarayon bo'yicha ma'lumotlarining shaffof tarzda ommaga berilib borilishidir. Davlat qarzini boshqarishda ikkita vazirlik ishtirok etadi: Iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi hamda Moliya vazirligi. Iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi institutsional muvofiqlashtirish va byudjetlashtirish sohasida strategik rejashtirish uchun javobgardir. U ijtimoiy va iqtisodiy siyosat, davlat investitsiyalari rejalari va makroiqtisodiy prognozlarni ishlab chiqadi. Bundan tashqari, Qozog'iston davlatida qarz munosabatlarini tartibga soluvchi mustaqil Qarz boshqaruvi departamenti Markaziy vakolatli organi tashkil qilinishi va uning har chorakda davlat oldida hisobdorlik amaliyoti ham qarz siyosatining to'g'ri olib borilishiga ko'makchi hisoblanadi. Qarz instrumentlari tarkibiga qaralganda ham tashqi qarz klassifikatsiyasida private debt (xususiy sektor qarz mablag'lari) ulushi yuqori ekanligini, muddatiga ko'ra tasniflanganda esa qariyb barcha davrlarda qarz mablag'larining 90 foizi uzoq muddatli qarzlarning tashkil qilishi ham uning qarz barqarorligini ushlab turishida katta rol o'ynaydi. Fikrimizcha, yuqoridagi moliyaviy dastaklarni yurtimizda ham iqtisodiyotga tatbiq qilish orqali davlatimiz qarz barqarorligini oshirish va tashqi qarz mablag'larini samarali boshqaruviga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-apreldagi "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-836-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-iyuldagi "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligi oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi



PQ-3857-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.12.2021-y., 06/21/36/1175-son.

3. Jumayev N.X., Raxmonov D.A., Azimova D.M. O'zbekistonda davlat qarzi va iqtisodiy globallashuv. Monografiya - Toshkent 2020-y. 126 b.

4. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'., Investitsiya va lizing asoslari. O'quv qo'llanma - T.: "Iqtisod-moliya", 2017-y. 183 b.

5. Shernayev A.A., Komolov O.S. Davlat qarzlarini boshqarish. Darslik – T., "Iqtisod-moliya" 2019-y. – 108 b.

6. International Debt Statistics 2022. International Bank for Reconstruction and Development and The World Bank.

7. <https://openknowledge.worldbank.org> (Jahon banki ochiq ma'lumotlar bazasi)

8. www.ebrd.org (Yevropa tiklanish va tarqiyot banki rasmiy sayti).

9. www.imf.org (Xalqaro valyuta jamg'armasi rasmiy sayti).

10. www.worldbank.org (Jahon banki rasmiy veb sayti).

11. <https://nationalbank.kz> (Qozog'iston Respublikasi milliy banki rasmiy veb-sayti).

